

O'QUVCHILARNING BO'SH VAQTLARINI MAZMUNLI TASHKIL ETISHDA MUSIQA TO'GARAKLARINING O'RNI

Hasanova Navbahor Xamraqulovna,

JDPI katta o'qituvchi.

Annotatsiya: Maqolada yosh avlod bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishida maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining roli va ahamiyati haqida va bu ishlarni yo'lga qo'yishda musiqa pedagoglarining o'rni haqida so'z borgan. Bundan tashqari hozirda maktabdan tashqari ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik uslub va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda o'qitishning yangi shakllarini joriy etishga doir ko'rsatmalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa madaniyati, estetik tarbiya, milliy madaniyat, ta'lim muassasalari, milliy qadriyatlar, to'garak.

Har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z - o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'ladi. Ota – bobolarimiz ruhiy olamining tomir – ildizlari aynan shu ma'naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchaning havasini tortib kelayotgan oliyjanob fazilatlar asosida shakllangan.

Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no - mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi. Sinfidan tashqari ta'lim tarbiya ishlari deganda maktabgacha tarbiya muassasalari umumta'lim maktablari maxsus o'quv dargohlari ta'lim jarayoni xisoblangan dars va mashg'ulotlardan tashqari shu o'quv dargohida olib borgan ta'lim ishlari majmuasi to'garak mashg'ulotlari o'quv dargohlarida o'tkaziladigan

turli tadbirlar tushuniladi. Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichida tarbiya muhim ekanligi ko‘rinib qoldi. Bu masala hozirgi zamonda ikkita bosh masala bilan deyarlik tik bog‘liq bo‘lib mazkur vazifalar jamiyatimizning moddiy texnika bazasini mustahkamlash va insonlar o‘rtasida yangicha ijtimoiy munosabatlarni targ‘ib qilishdir. Estetikani chinakam tushunadigan kishilarning kamol topishi uchun estetik terbiyaga boshqacha yondashish zarur. U chinakam go‘zallikka muhabbatni shakllantirishi, be‘manilikka va boshqa turli salbiy holatlarga nisbatan nafrat uyg‘otishi, go‘zallik yaratish ko‘nikmasini san‘at va hayotdagi hunukliklarga qarshi kurashish iqtidorini tarbiyalashi lozim. Mustaqilligimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining o‘ziga xos yo‘lini tanlashi va kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi. Biz esa bu ishlarni muvaffaqiyatli uddaladik. Mamlakatimizda uzluksiz ta‘lim tizimi joriy qilindi. Prezidentimiz 2014- yilni “Sog‘lom bola” yili deb e‘lon qilishni xam hukumatimizning yoshlar tarbiyasiga e‘tibor berayotganligi, ular uchun kerakli sharoit yaratishga harakat qilayotganligi yaqqol misol bo‘la oladi. Zero yoshlarning zamon talablari ota-ona hamda pedagog murabbiylar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Dars ila tarbiya orasida biroz farq bo‘lsada ikkisi bir biridan ajralmaydurg‘on birining vujudi biriga boylong‘on jon ila tan kabidir.

A.Avloniy

Tarbiya ishida o‘z o‘zini takomillashtirish jarayoniga katta etibor va o‘rin berilmog‘i lozim. Insoniyat faqat mustaqil o‘rganish tufayligina taraqqiy etgan.

G.Spenser

Odam bolalikdan yaxshilik va go‘zallik kurtaklarisiz hayotga qadam qo‘ymasligi kerak. Avlodlarni xam yaxshilik kurtaklarisiz xayotga yo‘llab bo‘lmaydi.

F.Dostoevskiy

Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi yorqin shaxsning shakllanishi olib keladi. O'zining qadrini anglaydigan, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz.

I.A.Karimov

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalardan bolalarning fanlar yoki sohalar bo'yicha qiziqishi ortib borishi ko'proq shu bilan shu soha bo'yicha ta'lim beruvchi ustozlarning mashg'ulotlariga qatnashishiga undan chetda qolib ketmasliklariga erishishimiz lozim. Maktabgacha tarbiya muassasalari umumta'lim maktablarida shuningdek undan yuqori o'quv dargohlarida olib boriladigan fan va to'garaklarning tasviriy san'at, adabiyot va musiqa fanlari misol bo'la oladi.

Musiqas san'atining xor ijrochiligi janri bolalarga ko'proq targ'ib qilinishi, xor ijrochiligining kelib chiqishi tarixi, uning jaxon musiqa madaniyatida tutgan o'rni, mashhur xor jamoalar xor ijrochiligining boshqa sirlarining xor ijrochiligi to'garagiga yozilishiga va sidqi dildan to'garak mashg'ulotlariga qatnashishiga sabab bo'lsa bu ishda asosiy rolni pedagoglarning metodik mahoratlari o'ynasada o'quv muassasalaridagi mavjud sharoitlar va boshqa o'quv qurollari iliq ishchan muhit xam zarurdir. Aks holda to'garak mashg'ulotlari kutilgan natijani bermasligi mumkin. Xuddi shuningdek o'quv dargohlarida o'tkaziladigan bayram tadbirlari va boshqa tadbirlar xam bolalar va yoshlarning g'oyaviy tarbiyalarini shakllantirishi mumkin.

Yosh avlod bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishida maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining ham roli kattadir. Shulardan biri taetr san'ati bo'lib unga musiqali drama teatri, kinoteatr va qo'g'irchoq teatrlari kabi turlari mavjud. Teatr san'at turidir. U xalq hayoti va uning milliy tarixi, madaniyati, urf odati, an'ana va marosimlari bilan bevosita chambarchas bog'liq bo'ladi. Teatrda aktyorlar jamoasi, musiqachilar jamoasi, rassom va texnik xodimlar ish olib boradi. Teatr sintetik

san'at turi bo'lib adabiyot, musiqa, drammaturgiya, raqs, qo'shiqchilik, tasviriy san'at san'atining ajralmas qismi bo'lib qurilgandir. Teatr san'atining o'ziga xos estetik kuchi xam ana shunda. Tomoshabinlarda ishonch xosil qilishning alohida imkoniyatga ega ekanligidir. Shuni aytish lozimki mamlakatimizda teatr san'atining rivojlanishiga Yetim Bobojonov, Muxriddin Qori Yoqubov, Tamaraxonim, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Fitrat, Shukur Burxonov, Lutfxonim Sarimsoqova va boshqalarning musiqali drama va opera aktyorlarida Ergash Yo'ldoshev, Saodat Qabulova va boshqalarning xizmati katta. Gap kelganda shuni aytish lozimki mamlakatimizda bolalar uchun qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, bolalar cholg'u sozlari ishlab chiqaradigan biror fabrika yo'q, shu sababli bolalar o'ynaydigan o'yinchoqlarda milliy ruhiyatimiz sezilmaydi. Ularning ishlarini yaxshilash, repertuarini kuchaytirish, xar bir bolani bir yilda xech bo'lmaganda 3-4 marta spektakllarni ko'rishlariga erishtirishimiz lozim, chunki bolalar qalbi murg'ak bo'lib, ular bolalikda olgan tasurotlar bir umr xotirasidan o'chmaydi.

Mustaqil faoliyat kattalarsiz bolalarning o'z xollaricha bajargan barcha ishlari, jumladan o'zlari kiyinishi, yuzlarini yuvishi, ovqatlanishi, maktabga borishi va boshqalar mustaqil faoliyat ko'rinishidir.

Xuddi shuningdek musiqiy faoliyat xam o'quvchi murabbiylar tomonidan boshqariladigan musiqiy faoliyat va mustaqil musiqiy faoliyat turlariga bo'linadi.

Bunday xolatlarda bolalarga xech kim shunday ishni qilishni to'g'ri ko'rsatma yoki yo'l-yo'riq bermagan, yoki ularni kuzatib nazorat qilib turmagan bo'ladi. Ular o'zlaricha turli o'zlariga yoqqan qo'shiqlarni xirgoya qilib kuylaydilar. O'sha ashulachi ijrosining oxangiga uning ovoz eshitish mahoratiga taxlid qiladilar. O'zlaricha radio, televideniya eshitishlarini yoki boshqa manbalar yordamida konsert, kino va ko'rsatuv eshittiruvlarini ko'radilar va tinglaydilar. Oilada esa radio eshittirishlari, televidenie ko'rsatuvlari, video konsertlari ko'rishi yoki uyida

cholgʻu sozlari bilan shugʻullanishi, ularning oʻsha eshittirish yoki koʻrsatuvlarda koʻrgan narsalari oiladagi manba hisoblanadi.

Mustaqil musiqiy faoliyatning bolalar qiziqishlaridan paydo boʻlishiga eʼtiborni qaratishimiz lozim. Demak bolalar musiqiy faoliyatning u yoki bu turiga qiziqar ekanlarki shu kurgan va eshitgan musiqiy jarayonni xotiralarida saqlab qolayabdilar va maʼlum muddat oʻtgach ularga taqliq qilmoqdalar. Biz pedagoglar bolalar mustaqil musiqiy faoliyatini qanday baholamogʻimiz lozim? Albatta unga ijobiy baho bermoq lozim. Zero bu faoliyat bolalarni imkon qadar mustaqil boʻlishga oʻrgatadi.

Agar hayotda insonlarning yashashiga eʼtibor berib qaraydigan biror vazifani yoki ishni oʻzlaricha fikrlab bajara olmaydigan qachonki boshqalarning buyurishini, uchratishini kutib turadigan aks holda oʻzlaricha ish bajaraolmaydigan shaxslarni koʻplab uchratishimiz mumkin. Bunday shaxslarni tarbiyalab yetishtirishdan na ota-onaga na jamiyatga manfaat tegadi.

Jamiyatga xam ota-onalarga xam oʻzlari tashabbus koʻrsatib, yangiliklar yaratib, ixtirolar qiluvchi sogʻlom aql, sogʻlom vujud bilan ish yurituvchi, oʻzi qilayotgan ishlarning natijasiga oʻzi javob bera oladigan shaxslar kerak.

Demak mustaqil musiqiy faoliyat kattalar eʼtiboridan chetta qolmaydigan faoliyat turi emas balki oqilona rahbarlikni talab qiladigan, bollarni yaratuvchanlik sari yetaklaydigan musiqiy faoliyat turi ekan.

Hozirda maktabdan tashqari taʼlim tizimiga ilgʻor pedagogik uslub va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda oʻqitishning yangi shakllarini joriy etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Milliy anʼana va qadriyatlarimizni yorqin va teran aks ettirish borasida tashkil etilayotgan va tashabbus koʻrsatayotgan turli koʻrik tanlovlarning va maktab qoshida tashkil etilgan turli musiqiy toʻgaraklarning bungan tashqari “Istiqlol gʻunchalari”, “Kamalak yulduzlari”, “Yangi avlod”, “Muhiddin qori Yoqubov nomli”, “Sozlar

navosii” hamda umumta’lim maktablari va “Barkamol avlod” bolalar ijodiyot markazlari qoshidagi tashkil etilgan turli to‘garaklarining bolalar bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishida xizmatlari beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.Nurmatov.N.Norxo‘jaev. Musiqa 3-sinf . -T.:
2. G‘ G‘ulom nomli nashriyoti 2008.
2. Jizzax DPI Yoshlar ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning vazifalari (Resp.Ilmiy-amaliy anjumani). - Jizzax 2006.
3. G.Sharipova. Musiqa va uni o‘qitish metodikasi. -T.: "Turon" nashriyoti 2003.
4. A.Normatov. Musiqiy ta’limda fanlararo bog‘liqlik. Jizzax 2010.
5. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standard va o‘quv dasturi. Musiqa 6-maxsus son. - T.: "Sharq" 1999.